

## **EKOLOGIK MUHIT HAR BIR INSONNING SOG'LOM HAYOT KECHIRISHI UCHUN ASOSIY OMIL**

Tilavov T  
Qarshi davlat universiteti

Kalit so'z: ekologik omil, Turkiya va Marokkoda, radiatsiya, Quyosh va yer.

Hozirgi davrda sayyoramizning ko'p mintaqalarida sodir bo'layotgan ekologik inqirozlar yildan-yilga ko'payib va kuchayib bormoqda. Atmosferaning yuqori qismida ozon qavati tobora siyraklashayapti, sayyoramiz iqlimining o'zgarishi borgan sari keskinlashmoqda. Sanoat rivojlangan megapolis shaharlar aholisining 90% yaqiniga toza xavo yetishmaydi. Sayyoramizning ko'p joylarida ichimlik suvi kamayib bormoqda. Yildan-yilga cho'l hududlari kengaymoqda, har yili millionlab gektar o'rmonzorlar odamlar tomonidan qirqilib yuborilmoqda yoki yonib ketmoqda. Biosferaning turli xil kimyoviy moddalar va radiatsiyadan ifloslanishdan, oldin beozor bo'lgan ayrim mikroorganizmlar kasallik tarqatuvchi mikroblarga aylanmoqda. Masalan, OITS, parranda grippi, shungata eybola, koronavirus va boshqalar. Keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar o'rtasida ziddiyatlarning kuchayishi beshafqat urushlarni keltirib chiqarmoqda (urush ham ekologik omildir). O'tgan yili Turkiya va Marokkoda bo'lgan daxshatli zilziladan minglab odamlar halok bo'ldi, shaharlar xonavayron bo'ldi. Shunday qilib, sayyoramizda borgan sari ko'payib borayotgan ekologik inqirozlardan ko'p insonlar aziyat chekmoqdalar(1).

Tashqi muhitning fizikaviy va kimyoviy omillari chunonchi, xomilador ayollar bir necha marta rentgen nur qabul qilganda, ularning bolasida rak kasalligi paydo bo'lganligi aniqlangan. Bundan tashqari radiolakatsion stansiya, televizion markaz, ba'zi sanoat korxonalaridan chiqadigan elektromagnit nurlari. Har xil manbalardan chiqadigan shovqin, vibratsiya, transport vositalarini tezligi, kislorod yetishmasligi kabi holatlar ta'sirida ham odamlarda turli xil kasalliklar yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, tamaki maxsulotlarini iste'mol qilganda yoki kishi organizmiga ovqat orqali kirgan simob, qo'rg'oshin kabi moddalar ham odamlarda biron kasallik sodir qilishi isbotlangan. Hozirgi davrda yuqorida keltirilgan omillar ta'sirining kishi organizmiga kuchayganlik sababi shundaki, odamlar organizmining iminitetini kuchsizlanganligidandir.

Ob-xavo xaroratini, shamolda keskin o'zgarib turishi, sotsial sharoitlar; uy-joy sharoiti (beton uylar), oilaning iqtisodiy axvoli, havoni har xil kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi kabilar odamlarda turli xil kasalliklarni, ayniqsa nafas olish a'zolari kasalliklarini ko'payishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi sharoitida ko'p kishilar yozning issiq haroratidan, qishda esa sovuqdan aziyat chekadilar. Yozning issiq kunlarida ham ba'zi kishilar dalada qishloq xo'jalik ishlari bilan band bo'ladilar yoki qurulishlarida ishlaydilar. Bunday sharoitda kishilar issiq ta'sirida oftob urush kasalligiga uchrashlari mumkin. Shuningdek, ularning organizmidagi vitaminlar issiq ta'sirida yemirilib ketadi. Soha

mutaxassislari 2024-yil yoz oylarida issiqni har yilgidan ham yuqoriroq bo'lishi mumkinligini bashorat qilmoqdalar. Shuning uchun yoz oylarida dalada ishlovchilar uchun ish rejimini o'zgartirib, ertalabki va kechqurungi salkin paytlarida ishni tashkil etish lozim. Bundan tashqari qish oylarida ham odamlarni yashash va ishlash joylarida iliq muhit yaratish choralarini ko'rish kerak.

Odam organizmiga nafaqat yerimizda sodir bo'lgan o'zgarishlar, hatto olis fazoda, ayniqsa, Quyoshda ro'y beradigan jarayonlar ham ta'sir etadi. A. L. Chijevskiy (1976) sayyoramiz organik dunyosining hayoti faqat Quyoshdan doimo ajraladigan energiyaga bog'lik bo'lmasdan, unda davriy ravishda sodir bo'ladigan aktivlikka xam bogliqligini asoslab berdi. Quyoshda to'fonlarning kuchayishi sayyoramizdagi barcha tirik oragnizmlarga, shuningdek, odamlarga har xil ofatlar, kasalliklar keltiradi. Quyosh tinchlangan davrda esa odamlar va barcha tirik organizmlar hayoti tinchroq o'tadi. Quyosh aktivligi kuchaygan yillari vabo, gripp, o'lat, bezgak, difteriya, meningit kabi kasalliklarning ko'p tarqalganligi kuzatilgan(2). Chunki ,sayyoramizda mavjud mikroorganizmlarning hayoti Quyoshdan keladigan va Yerimiz atrofidagi har xil fizik va kimyoviy omillarning ta'siriga bog'lik.

Shunday qilib, hozirgi davrda atrof-muhitdagi ekstremal omillarning ta'sirini kuchayishi, odamlar organizmida salbiy oqibatlar olib kelishiga sabab bo'lmoqda. Buning uchun ekstremal omillarni kuchini kamaytirish, odamlarni ularning salbiy ta'siridan muhofaza qilish choralarini ko'rish hozirgi davrdagi dolzarb muammolardandir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Тиловов Т. Тиловова Н Хаёт экологияси, Карши, «Насаф», 2023 й-307 б
2. Чижевский А.Л. Земное эхо солнечных бурь. Москва, Изд-во «Мысль»1976, -366с